

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAP TARTIBINING QIYOSIY TAHLILI

O'ktamova Moxigul Xamidullo qizi

FarDU katta o'qituvchisi, uktamovamoxigul@gmail.com

Muxtorova Mubina Avazbek qizi

FarDU talabasi

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 15.03.2026

Revised: 16.03.2026

Accepted: 17.03.2026

KALIT SO'ZLAR:

gap tartibi, qiyosiy
tilshunoslik, ingliz tili
sintaksisi, o'zbek tili
sintaksisi, gap tuzilishi,
qiyosiy lingvistik tahlil,
ikkinchi til o'rganish.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi gap tartibining qiyosiy tahlilini taqdim etadi. Unda ingliz va o'zbek tillaridagi gap tartibining o'xshashliklari va farqlari ko'rsatib beriladi, hamda ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek o'quvchilari duch keladigan qiyinchiliklar yoritiladi.

Kirish

Gap tartibi – bu gap tarkibidagi sintaktik birliklarning, ya'ni ega, kesim va to'ldiruvchilarning ma'lum tartib asosida joylashishi bo'lib, gap tuzilishi va ma'no ifodalashda muhim o'rin tutadi. Gap bo'laklarini joylashtirishda turli tillar turlicha tartibga amal qiladi. Ingliz tili, odatda, gap tartibi SVO (Ega – kesim – to'ldiruvchi) tuzilmasi bilan xarakterlanadi. O'zbek tili esa SOV (Ega – to'ldiruvchi – kesim) tartibiga ergashadi. Ushbu tuzilma farqlari ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek tadqiqotchilari uchun qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

Usullar va adabiyotlar tahlili

Ingliz va o'zbek tillarida gap tartibi masalasi tilshunoslikda keng o'rganilgan. Xususan, jahon tilshunosligida A.Radford, R.Huddleston o'zbek tilshunosligida A.G'ulomov hamda

Sh.Rahmatullayev, rus tilshunosligida esa A.Kononov va Y.Apresyan o'z nazariy fikrlari bilan tilshunoslikdagi gap tartibi o'rganilishiga munosib kissa qo'shgan. Gap tartibi tuzilishi, ahamiyati, ingliz va o'zbek tillaridagi o'xshashlik va farqlari to'g'risida N.Chomsky, D.Kristal, A.G'ulomov, M.Mirtojiyev va V.Plungianlarning ilmiy izlanishlarida alohida e'tibor qaratilgan.⁶³

Natijalar

O'zbek tilida esa odatiy so'z tartibi SOV (Subject–Object–Verb) shaklida namoyon bo'ladi va kesim odatda gap oxirida keladi. A.G'ulomov o'zbek tilida kesimning yakuniy pozitsiyada kelishini asosiy sintaktik belgi sifatida ko'rsatadi.⁶⁴ Sh.Rahmatullayev o'zbek tilida grammatik munosabatlar ko'proq morfologik vositalar orqali ifodalanishini ta'kidlaydi.⁶⁵ Shuningdek, A.Kononov turkiy tillarda fe'ning gap oxirida kelishi tipologik jihatdan barqaror xususiyat ekanligini qayd etadi.⁶⁶ Masalan, "Talaba darsni tushuntirdi" gapida fe'l oxirgi o'rinda keladi. Biroq urg'u yoki stilistik maqsadga ko'ra so'z tartibi o'zgarishi mumkin, bu esa tilning fleksiv tabiatini ko'rsatadi.

Ingliz tilida so'z tartibi qat'iy sintaktik tizimga asoslanadi va asosan SVO (Subject–Verb–Object) modeliga amal qiladi. A.Radford ingliz tilida gap strukturasi grammatik munosabatlarni aniqlashda markaziy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.⁶⁷ R.Huddleston va G.Pullum esa ingliz tilida ega va to'ldiruvchining o'rni o'zgarishi ma'no va grammatik to'g'rilikka bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi.⁶⁸ Masalan, "The teacher explained the lesson" gapida ega birinchi, kesim ikkinchi, to'ldiruvchi uchinchi o'rinda keladi. So'z tartibining buzilishi gapning grammatik xatoga aylanishiga sabab bo'ladi. Bu ingliz tilining analitik xususiyati bilan izohlanadi.

Ikki tilni qiyosiy tahlil qilish natijasida ularning struktur farqlari yaqqol namoyon bo'ladi. B.Comrie til tipologiyasida SVO va SOV tizimidagi tillarni struktur jihatdan farqlaydi hamda fe'ning pozitsiyasi grammatik tizimning markaziy elementi ekanini ta'kidlaydi.⁶⁹

⁶³ Radford, A. English Syntax: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 2004; –P.78; G'ulomov, A. Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi. Toshkent: Fan, 1965; –B.96; Кононов, А. Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. Москва: Издательство АН СССР, 1956. –С.112

⁶⁴ G'ulomov, A. Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi. Toshkent: Fan, 1965. –B.96.

⁶⁵ Rahmatullayev, Sh. O'zbek tili sintaksisi. Toshkent: Fan, 2010. –B.134.

⁶⁶ Кононов, А. Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. Москва: Издательство АН СССР, 1956. –С.112.

⁶⁷ Radford, A. English Syntax: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 2004. –P.45.

⁶⁸ Huddleston, Rodney & Pullum, Geoffrey. The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2002. –P.120.

⁶⁹ Comrie, B. Language Universals and Linguistic Typology. Oxford: Blackwell, 1989. –P.78.

N.Chomsky universal grammatika nazariyasida sintaktik tuzilmalarning umumiy tamoyillarini izohlaydi, bu esa turli tillarni qiyosiy o'rganishga nazariy asos yaratadi.⁷⁰ V.Yartseva esa kontrastiv lingvistikaning amaliy ahamiyatini ko'rsatib, til o'rganishda interferensiya muammosini tahlil qilgan.⁷¹ Shu sababli ingliz va o'zbek tillaridagi so'z tartibini qiyosiy o'rganish nafaqat nazariy, balki metodik jihatdan ham muhim hisoblanadi.

Tahlil

Ingliz va o'zbek tillarida gap tartibi grammatik tizimning munim qismi hisoblanadi. Ingliz tilida gap tuzilishi qat'iy SVO (Subject-Object-Verb) modeliga asoslanadi. Masalan: She reads a book. Ushbu tuzilmada fe'l doimo egadan keyin keladi. Shuning uchun, agar so'z tartibi o'zgarsa, gapning grammatik to'g'riligi va ma'nosi ham o'zgaradi. Bu holat ingliz tilida grammatik munosabatlar asosan gap tartibi bilan ifodalanishini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa asosiy model Subject-Object-Verb (SOV) hisoblanadi: Talaba kitob o'qiydi. Biroq o'zbek tilida kelishik qo'shimchalari mavjudligi sababli so'z tartibi nisbatan erkinroq hisoblanadi. Masalan, Kitobni talaba o'qiydi shaklida ham ma'no saqlanib qoladi. Shuning uchun, o'zbek tilida grammatik munosabatlar ko'proq morfologik vositalar orqali ifodalanadi. Shunday qilib, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida so'z tartibi qat'iy sintaktik vosita bo'lsa, o'zbek tilida u morfologik tizim bilan birgalikda ishlaydi. Bu farqlar EFL o'rganuvchilari uchun muayyan qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Xulosa

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida so'z tartibining tipologik va strukturaviy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida so'z tartibi qat'iy sintaktik vosita bo'lib, grammatik munosabatlar asosan Ega-Kesim-To'ldiruvchi (SVO) modeli orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa Ega-To'ldiruvchi-Kesim (SOV) modeli ustunlik qiladi va grammatik ma'no ko'proq kelishik qo'shimchalari yordamida ifodalanadi. Shuningdek, ingliz tilida so'z tartibining buzilishi grammatik xatolarga olib keladi, o'zbek tilida esa morfologik tizim mavjudligi sababli so'z tartibi nisbatan erkinroq hisoblanadi. Ushbu farqlar ikki tilning tipologik tabiatidan kelib chiqadi hamda EFL o'rganuvchilari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, so'z tartibini qiyosiy o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tarjima va til o'qitish jarayonida ham muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

⁷⁰ Chomsky, N. Lectures on Government and Binding. Dordrecht: Foris Publications, 1981. –P.34.

⁷¹ Ярцева, В. Н. Контрастивная лингвистика. Москва: Наука, 1968. –С.54.

Adabiyotlar

1. Gʻulomov, A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili grammatikasi. Toshkent: Fan, 1965.
2. Rahmatullayev, Sh. Oʻzbek tili sintaksisi. Toshkent: Fan, 2010.
3. Ismoilov, T. Oʻzbek tili morfologiyasi va sintaksisi. Toshkent: Akademiya, 2002.
4. Karimov, A. Oʻzbek tili grammatikasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Sharq, 2015.
5. Rustamov, D. Hozirgi oʻzbek tilida soʻz tartibi xususiyatlari. Toshkent: Fan, 2008.
6. Radford, A. English Syntax: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
7. Huddleston, R & Pullum, Geoffrey K. The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
8. Comrie, B. Language Universals and Linguistic Typology. Oxford: Blackwell, 1989.
9. Chomsky, N. Syntactic Structures. The Hague: Mouton & Co., 1957.
10. Chomsky, N. Lectures on Government and Binding. Dordrecht: Foris Publications, 1981.
11. Кононов, А. Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. Москва: Издательство АН СССР, 1956.
12. Ярцева, В. Н. Контрастивная лингвистика. Москва: Наука, 1968.
13. Холмуродова, Ф. Структуры предложений и вариации порядка слов с участием стативов в английском и узбекском языках. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2025, №3, 122–129.
14. Иванова, Е. В. Сравнительная синтаксическая типология английского и русского языков. Санкт-Петербург: Питер, 2000.
15. Петров, С. А. Основы контрастивной лингвистики. Москва: Высшая школа, 1998.